

BUXOROLIK JADID MIRZO SIROJIDDIN HAKIM BUXORIY FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)

Rizayev Nodir Sobirovich

**Mustaqil tadqiqotchi, Buxoro davlat universiteti,
Buxoro, O'zbekiston Buxoro, O'zbekiston
<https://doi.org/10.5281/zenodo.13948830>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro jadidchilik maktabi vakillaridan biri Mirzo Siroj Hakim Buxoriyning ijtimoiy-siyosiy hamda falsafiy qarashlari o'rganilgan. Yosh ma'rifatparvar Buxoro amirligidagi o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarni tahlil qiladi va o'z tajriba hamda qarashlari orqali o'z takliflarini bayon qilib boradi.

Kalit so'zlar: Mirzo Siroj, jadid, ijtimoiy adolat, zamonaviy ta'lim aql, ilm, hunar.

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ACTIVITY OF JADID FROM BUKHARA MIRZO SIROJIDDIN HAKIM BUKHORI, (SOCIAL-PHILOSOPHICAL ANALYSIS)

Rizayev Nodir Sobirovich

**Lecturer at the Department of Socio-Political Sciences,
Bukhara State University**

Abstract: In this article, the socio-political and philosophical views of Mirzo Siroj Hakim Bukhari, one of the representatives of Bukhara Jadidism school, are studied. The young enlightener analyzes the socio-political situations of that time in the Bukhara Emirate and presents his proposals through his experience and views.

Key words: Mirza Siroj, Jadid, social justice, modern education, intelligence, science, craft.

Jadidlar harakati Turkistondada milliy o'zlikni anglash va zamonaviy qarashlarga ega bo'lish uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Ma'rifatparvarlar o'zbek xalqining tarixiy, madaniy va adabiy merosini qayta tiklashga intildilar, bu esa milliy identifikatsiyani rivojlantirishga yordam berdi. Jadidlar yangi g'oyalar orqali zamonaviy fikrlar va ilm-fanni xalq orasida tarqatdilar. Ular yangilanish, ijtimoiy o'zgarishlar va innovatsion g'oyalar bilan xalqni tanishtirishni maqsad qildilar. An'anaviy ta'lim tizimini tanqid qilib, zamonaviy ta'lim usullarini joriy etishga harakat qildilar va yangi maktablar ochish bilan ta'limni sifat jihatidan yaxshilashga intildilar. Jadidlar harakati ijtimoiy adolat, ayollarning huquqlari va erkinlik g'oyalarini tarqatishda ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ana shunday jadidlardan biri buxorolik savdogar, tabib, sayyoh Mirzo Sirojiddin Hakim Buxoriydir.

Mirzo Sirojiddin 1877-yil 23-oktabrda Ismoilxo'ja otaliq mahallasida (hozirgi Mehtar Anbar ko'chasi) Hoji Abdurauf Mirzoxurdboy savdogar oilasida dunyoga kelgan.

Bir necha tillarda gapira oladigan va diniy-dunyoviy bilimlarni egallagan Mirzo Sirojiddin o'z qarashlarini sayohatlari davomida ko'rgan bilganlari orqali bayon qilib bordi. Mirzo Sirojiddin sayohatga chiqishiga asosiy sabab deb "...dunyoning obodligini, xarobalarini ko'rib, ilm va san'at taraqqiyotidan xabardor bo'lish, sayohatlari to'g'risida, butun tajriba va ma'lumotlarini o'z diniy va vatandosh birodarlariga taqdim qilib, xalqni safar foydalaridan xabardor qilish"dan iborat bo'lgan.[1]

Mirzo Sirojiddin sayohatlari davomida Yevropa va Sharqning ko'plab shaharlarida bo'lib, sanoat korxonalari, universitet, muzey, kutubxona va kasalxonalar faoliyati bilan yaqindan

tanishgan. Bu yerlardagi taraqqiyotning asosiy sababi ozodlik va ilm-fan rivojida ekanligini anglagan Mirzo Sirojiddin sayohatlari asosida yozgan memuar asari “Tuhfayi ahli Buxoro” (Buxoro xalqiga sovg’a)da Buxoroning Yevropa va Osiyoning bir qator davlatlaridan orqada qolishiga haqida: “... Butun yer yuzini ular (Ovro’po mustamlakachilari) o’z tasarruflariga olganlar. Biz ularning qo’l ostilariga qolganmiz. Biz iflos ko’cha va bozorlarda yashab kasb qilishimiz va quyosh issiqligida ziroat bilan shug’ullanishimiz kerak va qo’lga kiritilgan boyligimizni ularning san’atlari evaziga berib, o’zimizni gadoy qilishimiz kerak... Bolalarimiz libosidan boshlab to o’liklarimizning kafanigacha Ovro’podan keladi... Endi biz muhtoj bo’lmay, kim bo’lsin. Ular biz – osiyoliklarning boyliklarini olib ketar ekanlar, boy bo’lmay, kim boy bo’lsin? Axir biz ham ularday odammiz. Biz ham yaxshi uylarda yashashni orzu qilamiz”, — deb yozadi.[2]

Mirzo Siroj ko’plab sayohatlari davomida erishilgan yutuqlarni Buxoroni o’sha davrdagi ahvoli bilan solishtiradi va ko’p jabhalarda orqada qolayotganligini ta’kidlaydi. Lekin Mirzo Siroj Buxoroning kelajagiga ishonadi va taraqqiyot asosini ilm, hunar va tarbiyaga bog’laydi. Taraqqiyotga erishish uchun maorif sohasini rivojlantirish va isloh qilish kerakligini ta’kidlab: “Biz, Osiyo xalqi, ovro’poliklardan taraqqiyot jihatidan orqada qolgan bo’lsak ham, hali vaqt bor, qo’limizdan chiqib ketgan ilm va sarvatni qayta qo’lga olishga, bugungi faqirlikdan qutulishga imkoniyatimiz bor, taraqqiyot va obodonchilikni yo’lini to’sadigan biror narsa ko’rinmaydi va hech kim bizning yuzimizga ilm va hunar eshiklarini yopgani yo’q. Bizning taraqqiyotimiz ilmga bog’liqdir. Biz maktab va madrasalarimizdagi ta’lim va tarbiyani isloh qilishimiz kerak”, — deb o’z fikr-mulohazalarini taqdim etadi.

Mirzo Sirojiddin o’zining “Buxoroyi sharif” gazetasida chop qilingan “Bir oz faoliyat lozim” nomli maqolasini: “Ba’zida ko’zimizni ochib o’tgan zamonlarga nazar tashlasak, biz ilm va oliy fanlardan ilg’or millat edik va bir necha millatlarning harakatga kelishiga hissa qo’shganmiz”, jumalari bilan boshlaydi. Jahon ilm-fani rivojiga hissa qo’shgan mutafakkirlarimiz Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, imom Al-Buxoriy, shoir Rudakiylarni tilga olib, ularni o’z asrining yagonasi va durdonasi, deb ataydi. Buxoroning hozirgi ahvolidan afsuslanib: “Bas, hozirgacha bizga nima bo’libdiki va nima monelik qilmoqdaki, bizning ko’zlarimiz hozirgi ilm fanni ko’rish u yoqda tursin avvalgi ilm fandani ham yopiq qolmoqda”, deydi. Mirzo Siroj boshqa ma’rifatparvarlar singari Buxoroda ilm fan, sog’liqni saqlash va ko’plab ijtimoiy sohalarini rivojlantirishni o’z qarashlarida bayon etadi.

Mirzo Sirojiddin shuningdek ijtimoiy- siyosiy qarashlari bilan birgalikda o’zining falsafiy qarshlariniyam bayon qilib boradi. Jumladan uning 1914 yilning fevralida “Oyina” jurnalida “Aql” sarlavhali maqolasini e’lon qilgan. Muallif “aql” ning lug’aviy ma’nosi va falsafiy kategoriyasiga alohida e’tibor qaratib, u insonni hayvonot olamidan ajratib turuvchi ziynat ekani, aqlsiz shaxs jamiyatning to’laqonli, ma’naviy barkamol a’zosi bo’la olmasligini qayd etadi. Insonning aql-zakovati, idroki tushunchalarini falsafiy talqin etish bilan birga, idrok va shuur (sezish-hissiyot) kabi ziynatlarga ham ta’rif beradi. Muallif shu o’rinda insonni ikki toifa — noqis va komil shaxslarga ajratadi. Noqis aql insonga tug’ilishi bilan ato etilsa, komil aqlga ko’p kitob o’qish, tinglash, ilm olish va hayotiy tajriba asosida erishish mumkin. Shu bilan birga, insonda tarbiya vositasida xulqiy aql, mehnat qilish yordamida kasbiy aql shakllanishi yuzasidan ham fikr yuritadi. Har bir inson o’z yurish-turishi, muomalasi, zehni bilan ajralib turadi. Aqlli odam nodondan farqli ravishda hayotda o’z fikri, tanlovi va maqsadiga ega bo’ladi. Maqola muallifi beshikdan to qabrgacha ilm olish mazmunidagi hadisi sharifni asosiy g’oya

sifatida olib, har bir shaxs ilm olish, o'z ustida muntazam ishlash, mehnat qilish, kasb egallash orqali komil inson bo'lib yetishishi mumkinligini yoqlaydi.[3]

Shuningdek Mirzo Sirojiddin ilm haqida gapirar ekan uni ikki qismga ajratadi: tana ilmi va din ilmi. Tana ilmi – mijoz salomatligi ilmi bo'lib, unga tib, san'at, tijorat, dehqonchilik va boshqa ilmlar kiradi. Din ilmi – ilmi sharif bo'lib, unga Tafsir, Hadis, Aqoid kiradi. Mutafakkir dunyoviy ilmlarni o'rganishga da'vat etib, tijorat, sanoat, sayyohlik, kemasozlik, o'q otish ilmlarini o'rganish savob ekanligini uqtiradi. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlar misolida dunyoviy ilmlarning xalq va millatning taraqqiyotidagi ahamiyatini ko'rsatib o'tadi. "Butun Ovro'po Shveysariya millatining ilm tarbiyasi oldida bosh egadilar. Ularning maktab va madrasalarini ko'rganimdan keyin esimga o'zimizning maktab va madrasalarimiz keldi va juda afsuslandim. Nima uchun bizning millatimiz bu darajada ilmni xor qilganlar", deb afsuslanadi.

U "Tuhfayi ahli Buxoro" asarida Sharq mamlakatlaridan Eron maorif tizimi Buxorodan ancha ilgari ketganini ta'kidlaydi. "Boshlang'ich jadid maktablari juda ko'p, dorulmuallimin, dorulfunun, siyosiy, harbiy va tibbiy madrasalari Farangiston tartibidir. Muallimlari ovro'polik yo o'sha yerlarda ta'lim olib kelgan shaxslardir. Farang ilmlariga doir kitoblarni fors tilida tarjima qilganlar. Fransuz va boshqa tillardan dars beradilar. Diniy ilmlarni diniy madrasalarda o'rganadilar. Ijtihod darajasiga yetganlar. 20 yil Najaf va Karbaloga borib o'qiydilar. Milliy va pulli madrasalar, xotin-qizlar madrasalari ochganlar. Rus, olmon, ingliz madrasalari ham bor. Falohat (qishloq xo'jaligi) maktabi ham ishga tushgan, dorulfunun madrasasi tarkibiga kiradi. Farangiston tipidagi kasalxonalar, tashrehsalxonalar (diagnostika bo'limlari) ochganlar. Tehronda sog'liqni saqlash sohasida anjumanlar bo'lib turadi. Komil tabiblar, ilmli va tajribali jarrohlari, diplomli do'xturlar ko'pdur", deb ta'riflaydi va bunday o'zgarishlarni Buxoroda ham ko'rishni istaydi.

Tarbiya va inson kamoloti haqida to'xtalib o'tar ekan Mirzo Sirojiddin bolaga tarbiya berish uchun eng avvalo onalarning tarbiyasi va ilmli bo'lishlarini shart ekanligini ta'kidlab: "Bola tarbiyasiga bir lahza ham g'afatda qolmaslik kerak. Ularda yaxshi xislat va fazilatlarini shakllantirish zarur, yoshligidan bolaga ilm berish farz, chunki yoshlikda olgan tarbiya va bilim nihoyatda mustahkam bo'ladi", — deb yozadi. Bolani erta maktabga berishni rad etib: "Farzand yetti yoshga to'lishi bilan unga ilm, odob va kamolot kasbini o'rgatish kerak, unga turmush qoidalari, odamiylik qonunlari va maosh to'g'risida xabar berish shart. Har kim bolasini tarbiyasiz qoldirsa, zotining saodat gavhari o'smay... baxtsiz bo'lib qoladi", — deb ta'kidlaydi.[4]

Mutafakkir kasb o'rganish haqida ham fikr bildirib: "Dunyoning hamma ishlari uchun ilm kerak. Kasb egallamoqchi bo'lgan kishi avval o'sha mansab yo kasb ilmini o'rganib, imtihon topshirib, so'ng ishni boshlashi lozim. Hech bir shaxs ilmsiz muftiy, qozi, hokim, lashkarboshi yo shoh bo'lishi mumkin emas. Ilm olgandan so'ng bilim darajasi va malakasiga qarab sohasi bo'yicha uni pog'onama-pog'ona ko'tarish kerak", — deb ta'kidlaydi.

Mirzo Sirojiddinning masnaviy usulida yozgan "Yod bod" ("Yodda bo'lsin") nomli she'ri 1913 yilda "Oyina" jurnalining 2-sonida chop etiladi. Muallif o'z chiqishlarida tarixiy tafakkurni shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratadi, allomalar yurti bo'lgan Markaziy Osiyoda ilm nufuzi pasayib ketgani, aholini savodli qilishdagi kamchiliklar va ta'lim tizimidagi muammolarni jiddiy tanqid qiladi. "Biz o'tmishda qanchalik rivojlangan edik, sivilizatsiya bobida o'zimizga yarasha o'rinda edik, taraqqiyparvarlik, ilm-fan kashfiyoti, davlatchilik rivojida ham ilg'or edik. Biz hozir g'afatdamiz, ilmdan uzoqlashdik. Bizning tanazzulimiz ta'lim

va ilmni kuchsizlanganligidandir”, deb achinib yozadi. Buyuk ajdodlarimizga munosib avlod bo’lish uchun tarixdan to’g’ri saboq chiqarishimiz, ilm-fanni rivojlantirish, kitob o’qish lozimligini bayon etgan.[5]

References:

1. Mirza Sirojiddini Hakim. Tuhafi ahli Buxoro. -Dushanbe: Irfon, 1984.
2. Dilnoza Jamolova. Buxoro jadidlari homiysi va yetakchisi Mirzo Sirojiddin. <https://oyina.uz/uz/article/1032>
3. Ҳаким Бухорий (Мирзо Сирож), Ақл №16 (1914.02.08), б 286-288
4. <https://jadid-media.uz/jadids/mirzo-sirojiddin-hakim-buxoriy>
5. Ҳаким Бухорий (Мирзо Сирож) Ёд бод.№2.1913.
6. R.N.Sobirovich. XX asr boshlarida Buxoro jadidlarining ijtimoiy- siyosiy qarashlari. SCIENCEPROBLEMS.UZ.Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари.(elektron jurnal) Toshkent:2024. № 5 (4).-B134-138.
7. N.S.Rizayev. Buxoro jadidlari falsafasining ayrim masalalari. ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ISSN: 3030-3680. Часть-22. Том-4. Июнь -2024. PP.203-212.